

KASB VA YOSHLAR

Davlatova Nodira Abduqayum qizi*Namangan viloyati Pop tumani 5-maktab psixologi***Xidiraliyeva Zamira Botiraliyevna***Namangan viloyati Pop tumani 14-maktab psixologi*

Annotatsiya: Zamonaviy bilim olish hamda mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasb-hunar egallash istagida bo'lgan yoshlarning ta'lim olishi uchun keng imkoniyatlar yaratish, ulg'ayib kelayotgan yosh avlodning intellektual hamda kasbiy mahoratini rivojlantirishga bo'lgan intilishlarini rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash, va sharoit yaratib berish asosiy vazifalardan birdir.

Kalit so'zlar: *tadbirkorlik ko'nikmalari, kasbiy malaka tizimi, jamiyat, shaxs, sun'iy intellekt, loyiha menejerlari, buxgalter, virtual haqiqat dizayneri, marketing.*

KIRISH

Har qanday jamiyat boyligining manbayi, insoniyat tomonidan moddiy va ma'naviy boylik yaratishning asosiy omili mehnatdir. Jamiyatning ijtimoiy shakli qanday bo'lishidan qat'i nazar, mehnat moddiy va nomoddiy ne'matlar ishlab chiqarishda zarur faoliyat bo'lib qoladi.

Inson, uning har tomonlama uyg'un kamol topishi hamda farovonligi, shaxs manfaatlarini ro'yobga chiqarishning sharoitlarini va ta'sirchan mexanizmlarini yaratish respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadidir. Xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlari asosida, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O'zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir.

1. Kelajak uchun eng yaxshi kasb qaysi?
2. Yaqin 10 yil ichida qay bir sohadan kattaroq daromad topish mumkin?
3. Bugungi kunda qanday mutaxassislariga talab kuchliroq?

Bu savolga javob izlayotganda, avvalo, avtomatlashtirish yoki muqarrar ravishda sun'iy intellekt rivojlanishi bilan almashtirilishi mumkin bo'lgan kasblardan qochish lozim. Sababi, texnologiya rivojlanishi bilan mazkur yo'nalishdagi ishlar o'z ahamiyatini yo'qota boshlashi mumkin.

Keyingi yillarda insonga munosabat o'zgargani haqida ko'p aytiladi. Ayniqsa, yoshlarga nisbatan, ularning ilm olishi, hunarli bo'lishi, umuman, jamiyatda munosib o'rnini topishi bilan bog'liq masalalarga munosabat ham tubdan o'zgardi. Tizimli yondashuv yo'lga qo'yildi. Buni yoshlarni kasbga yo'naltirish misolida ko'rib chiqsak,

yanada aniq tasavvur va xulosaga ega bo‘lamiz. Qadimdan ota-bobolarimiz farzand tarbiyasida xoh u o‘g‘il, xoh qiz bo‘lsin, kasb-hunarli qilishga alohida e‘tibor berganlar. Farzandlarining layoqati, qobiliyatiga qarab tarbiyalaganlar. Ta‘kidlash lozimki, bolada mehnatga munosabat dastavval oiladan boshlanadi. Insonning unib-o‘ssishi, shaxs sifatida shakllanishi, umuman, hayotning ma‘nosini faoliyatsiz, mehnatsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Odamzod paydo bo‘lishidan boshlab mehnat bilan shug‘ullangan. Dastlab faqat kun kechirish uchun qilingan mehnat keyinchalik kattaroq maqsadni, manfaat ko‘rishni, jamiyat uchun xizmat qilishdek sharaflil faoliyatga aylangan. Hozirgi kunda ham mazkur masala dolzarbligini yo‘qotmagan.

Yoshlarning huquq va manfaatlarini ta‘minlash, ularning bilim olishi, mehnat qilishi, o‘z qobiliyat va iste‘dodini ro‘yobga chiqarishi uchun qulay sharoit yaratish so‘nggi yillarda O‘zbekistonda davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Bu borada ulkan va amaliy natijalarni har bir o‘zidan o‘tkazib his qilib bormoqda. Qisqa davrda ushbu yo‘nalishda 100 dan ortiq qonun hujjatlari qabul qilingani, ularning ijrosiga mas‘uliyat bilan yondashilayotgani buni yaqqol tasdiqlaydi.

Xalqimiz qalbidagi ezgu g‘oya – Yangi O‘zbekistonni bunyod etish uchun birinchi navbatda ta‘limni yanada rivojlantirishga qaratilayotgan e‘tibor kishini quvontirmay qolmaydi. O‘ylab ko‘raylik, bola umrining qariyb 10 yilini maktabda o‘tkazadi. Bu davr ichida uni har tomonlama ilmga, hunarga intiluvchan qilib tarbiyalash har birimizning vazifamizdir.

Yoshlarni kasb-hunar tanlashga tayyorlashda har bir o‘g‘il-qiz shaxsidagi individual xususiyatlarni inobatga olish, ularning tug‘ma iste‘dodlari, ma‘lum bir kasb-hunarga nisbatan bo‘lgan layoqat, moyillikka qarab kasb-hunar yo‘naltirish yoshlar orasida ishsizlikning oldini olish barobarida jamiyatga foydasi tegadigan mutaxassislar soni ko‘payishida muhim ahamiyatga ega.

Yoshlarni munosib kasb va sohaga yo‘naltirish, yoshlar bandligi – bu davlat ahamiyatiga molik masala, chunki aynan yoshlar mamlakat kadrlar salohiyatini tashkil qiladi.

Yoshlar bandligini ta‘minlash davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining dolzarb va uzoq muddatli vazifasi hisoblanadi. Bugungi kunda inson salohiyatining raqobatbardoshligini oshirish ko‘p jihatdan yoshlarga oid strategiyaga bog‘liqdir.

Bugungi yoshlar ko‘p jihatdan jamiyatdagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarga ta‘sir ko‘rsatadi. Shu bilan bir qatorda, yoshlarni munosib kasbga yo‘naltirish, ishga joylashtirish orqali jinoyatchilikning barvaqt oldini olish muhim vazifa hisoblanadi.

Bu yangi hayot ostonasiga qadam qo‘yayotgan yoshlarning orzu-intilishlarini ro‘yobga chiqarish barobarida o‘ziga bo‘lgan ishonchi, hayotga bo‘lgan ishonchi ortishida, qolaversa, yurtimiz ravnaqi, taraqqiyoti uchun munosib hissa qo‘sha oladigan avlodlar bo‘lib tarbiyalanishida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yoshlarning ma'naviy, axloqiy, jismoniy, ruhiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda, ularni har tomonlama kasb-hunar tanlashga mustaqil tayyorlash dolzarb vazifa ekanligini anglagan holda, 2023 yil 1 fevraldan boshlab respublika bo'yicha tajriba sinov tariqasida 42 ta tuman (shahar)da jami 126 ta maktabda 64 ta ishchi kasblar, 21 ta tadbirkorlik yo'nalishlari hamda 10 ta IT va "kreativ industriya" yo'nalishlari bo'yicha 9,8 ming nafar o'quvchilar kasbga o'rgatildi.

Mehnatsevarlik xalqimizga xos xislatlardan biridir. Inson har bir narsaga o'z mehnati, intilishlari yordamida erishadi. Mehnat tufayli farzandlarimiz mustaqil hayotga erkin inson bo'lib qadam qo'yadilar. Biz esa ularga ko'makdosh, hayotda to'g'ri va o'z yo'llarini topishlarida yo'lchi yo'ldosh bo'lishimiz zarurdir. Shu maqsadda hududlarimizda maktab bitiruvchilari uchun "Ta'lim va kasb-2023" xalqaro ko'rgazmasini tashkil etildi. Ko'rgazmaga 50 dan ortiq xorijiy oliy ta'lim muassasa vakillari, 80 mingga yaqin maktab bitiruvchilari jalb etildi. Bundan tashqari, Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati (GIZ) bilan "O'zbekiston professional ta'lim tizimida islohotlar va zamonaviylashtirish jarayonlarini qo'llab quvvatlash" loyihasi doirasida hamkorlik memorandumini imzolani, 2 marotaba respublika seminari o'tkazildi.

Ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va agrotexnologiya yo'nalishidagi korxona va tashkilotlarga 34 mingga yaqin ekskursiyalar tashkil etilib, 616 ming nafardan ortiq o'quvchilar qamrab olindi. Bitiruvchi o'quvchilarining kasbga bo'lgan qiziqishini yanada oshirish maqsadida "Kasb va yoshlar" ochiq muloqot oyligi o'tkazilib, 562 989 nafar umumta'lim maktab o'quvchilarining 716 ta professional ta'lim muassasalariga tashrifi tashkil etildi.

XULOSA

«Hunar – hunardan rizqing unar», deydi dono xalqimiz. O'quvchi maktabni tugatgach, uni to'g'ri yo'naltirish, so'ng talab yuqori bo'lgan kasb egasi bo'lishga ko'maklashish uning kelgusi hayotida juda muhim ahamiyatga ega. Raqamlardan, amalga oshirilayotgan ishlar salmog'idan ko'rinib turibdiki, Prezidentimiz boshchiligidagi yoshlarning har tomonlama yetuk va barkamol bo'lib yetishishlari uchun otalarcha g'amxo'rlik qilinmoqda.

Maqsad ezgu va yagona – Yangi O'zbekiston farzandlari hayot bilan hamnafas, shijoatli, bilimga chanqoq, halol va hayotga teran nigoh bilan boqa oladigan insonlar bo'lib tarbiya topishiga erishishdir. Mehnatkash yoshlar to'g'ri fikr, ilg'or dunyoqarash bilan mamlakatni faol rivojlantiruvchi drayverga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Мирзиёев Ш. "Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси". – Тошкент: "Ўзбекистон" нашриёти, 2021.

2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисига Мурожаатномаси. – Тошкент 2022 йил, 20 декабрь.
3. Ўзбекистон Республикасининг 2020 йил 20 октябрдаги “Аҳоли бандлиги тўғрисида”ги ЎРҚ- 642-сон Қонуни. 4.Ўзбекистон Республикасининг 2020 йил 23 сентябрдаги “Таълим тўғрисида”ги ЎРҚ-637-сон Қонуни.
4. Ўзбекистон Республикасининг 2022 йил 28 октябрдаги “Меҳнат кодексини тасдиқлаш тўғрисида”ги ЎРҚ-798-сон Қонуни.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сон Фармони.
6. Абдурахмонова Г. Меҳнат иқтисодиёти. // Ўқув қўлланма. – Тошкент: Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи, 2020.